

MUMTOZ ADABIYOTDA JAMSHID OBRAZI

O'ktamova Gulsevar
Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti
3-bosqich talabasi

Anotatsiya. Ushbu maqolada Sharq mumtoz adabiyotida Jamshid obrazining shakllanishi, uning mifologik ildizlari va badiiy talqinlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Qadimgi Eron mifologiyasi va Firdavsiyning "Shohnoma" dostonidan boshlab Nizomiy, Jomiy va Alisher Navoiy ijodigacha bo'lgan adabiy manbalarda Jamshidning tutgan o'rni, uning ikki qirrali — ma'rifatparvar va kibr qurboni sifatidagi obrazlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Jamshid, mumtoz adabiyot, "Shohnoma", ramziy obraz, kibr, adolat, ma'rifat, Nizomiy, Navoiy.

Abstract. This article analyzes the formation of the image of Jamshid in the classical literature of the East, its mythological roots and artistic interpretations from a scientific and theoretical perspective. The place of Jamshid in literary sources, from ancient Iranian mythology and Firdausi's epic "Shahnama" to the works of Nizami, Jami and Alisher Navoi, and his two-faceted images as an enlightener and a victim of arrogance, are highlighted.

Keywords: Jamshid, classical literature, "Shahnama", symbolic image, arrogance, justice, enlightenment, Nizami, Navoi.

Kirish

Sharq mumtoz adabiyoti o'zida ming yillik tarix, ma'naviy boylik va ramziy obrazlar tizimini mujassam etadi. Shu ramziy qahramonlar ichida Jamshid obrazi alohida o'rin tutadi. U qadimgi Eron mifologiyasi, zardushtiylik rivoyatlari va, ayniqsa, Firdavsiyning "Shohnoma" dostonida markaziy shoh obrazlaridan biri sifatida gavdalanadi. Jamshidga nisbatan yaratilgan adabiy tasvirlar Sharqning ko'plab mumtoz ijodkorlari — Nizomiy, Jomiy, Alisher Navoiy, Xusrav Dehlaviy kabi ulug' adiblarga ham ilhom manbai bo'lgan. Jamshid obrazi orqali mualliflar insonning

ma'naviy kamoloti, davlat boshqaruvi, adolat va kibrning oqibati kabi umuminsoniy g'oyalarni ifodalaganlar.

Asosiy qism

Jamshid qadimgi Sharq rivoyatlarida hukmronlik qilgan afsonaviy podshoh sifatida tasvirlanadi. U insonlarga turli san'at va hunarlarni o'rgatgan, jamiyatga tartib-intizom kiritgan, yurtni obod qilgan shoh sifatida ulug'lanadi. Zardushtiylik manbalarida u ilohiy nurga ega shoh, odillik va ezgulik timsoli bo'lib ko'rsatiladi. Sharq xalqlari Jamshid qurdirgan deya e'tirof etiladigan taxt ("Jamshid taxti") va oynayi Jamshid kabi ramzlarni ijtimoiy-ma'naviy ma'nolar bilan boyitganlar.

Jamshid obrazining kelib chiqishi "Avesto" kitobi hamda hind-eron mifologiyasiga borib taqaladi. Mazkur ma'lumotlar Jamshid haqidagi dastlabki tasavvurlarni berib, keyinchalik uni turli tarixiy-badiiy asarlardagi talqinini kuzatishda ham asqatadi.

Jamshid badiiy obraz sifatida ilk marotaba "Shohnoma"da o'z ifodasini topadi. Abulqosim Firdavsiy Jamshid obrazining "Avesto"dagi xususiyatlarini saqlagan holda uni qayta rivojlantiradi va mukammal obraz yaratadi. Natijada, Jamshid Firdavsiy "Shohnoma"sidan keyin yaratilgan asarlar uchun an'anaviy obraz, u haqdagi tafsilotlar esa an'anaviy syujetga aylanadi. "Shohnoma"da Jamshid Kayumarsning o'g'li Xushangning nabirasi sifatida tasvirlanadi. Jamshid yettiz yuz yil hukmronlik qilgan. Asarda Jamshid qilgan xayrli ishlar mufassal bayon qilinib, avval dono, adolatli, ma'rifatparvar, xalqni hunar va ilmga yetaklovchi shoh sifatida tasvirlanadi. U odamzod hayotiga qulaylik kiritgan olgan ko'plab ishlarga bosh bo'ladi. Biroq Jamshidning obrazi faqat yuksalishni emas, balki tanazzulni ham o'zida mujassam etadi. Dostonning keyingi qismida u "men Xudoman" degan kibrli so'zlari sabab ilohiy marhamatdan mahrum bo'ladi. Natijada shohlikdan qulatiladi va halok bo'ladi.

Sharq mumtoz adabiyotida Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida Jamshid bilan bog'liq voqealar tarixiy-etnografik yo'sinda talqin etiladi. Asarda Jamshid haqidagi turli ma'lumotlar o'zgarishsiz holda beriladi, muallif

ba'zan bir xil lavhalarni turli manbalardan keltirilganligi bois, takror ham uchratish mumkin. Jamshid obrazi haqidagi barcha qadimgi tarixiyafsonaviy kitoblardan olingan lavhalar Beruniy asarida bir yerga jamlanganligi sababli, ushbu asarni o'zbek adabiyotidagi an'anaviy Jamshid obrazi yaratilishida poydevor bo'lgan, deyish mumkin.

Nizomiy Ganjaviy Jamshidni ilohiy ilhomga ega, dunyoni obod qilgan shoh sifatida tilga oladi. U yaratgan oynayi Jamshid orqali inson tafakkuri va haqiqatni anglash mavzusi yoritiladi.

Abdurahmon Jomiy "Bahoriston"da Jamshidni bilimdon, adolatparvar hukmdor sifatida eslaydi. Uning hayotidan ibratli hikoyatlar keltirib, komil inson fazilatlarini targ'ib qiladi.

Alisher Navoiy Sharq tarixnavisligidan kelib chiqib, "Tarixi muluki ajam" ("Arab bo'lmagan shohlar tarixi") asarida Jamshidni peshdodiylar sulolasidan bo'lgan podshoh sifatida zikr etadi. Uning yozishicha, ayrim Sharq tarixchilari Jamshidni Tahmurasning qarindoshi, boshqalari esa qarindoshining o'g'li, deb ko'rsatganlar. Boshqa Sharq adiblari singari Navoiy ham insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida erishgan ko'pgina yutuqlarini Jamshid nomi bilan bog'laydi. Asardagi hikoyada shoh Jamshid dastlab adolatli hukmdor bo'lganligini, yog'och va tosh qurollar o'rniga temirdan ishlangan qurollarning paydo bo'lishini, ipak matolar, bo'yoqlarni uning ixtirosi deb hisoblaydi. "Tarixi muluki ajam"da Jamshidning Istaxr sharini kengaytirgani va u yerda Chihilminar, ya'ni 40 minor deb ataluvchi ulkan binolar qurdirgani va shu munosabat bilan katta bazm uyushtirib, o'sha kun "Navro'z" deb atala boshlaganligi haqida ma'lumot berib o'tadi. Lekin keyinchalik Jamshid o'z qudratiga ishonib, kibr-u havoga berilgan va hatto shu darajaga yetganki, odamlardan o'ziga sig'inishini talab qilgan. oqibatda, Shu sababli Alloh g'azabiga uchrab, Zahhok tomonidan o'ldirilgan.

Xulosa

Mumtoz adabiyotda Jamshid obrazi turli qirralari bilan yorqin va mazmunli timsol bo'lib shakllangan. U avvalo — ma'rifatparvar, obodonlik yaratgan hukmdor; ammo ayni vaqtda — kibr tufayli zavol topgan shoh. Shu ikki qirrali talqin adabiyotda Jamshidni ibratli obraz, insonning ruhiy kamoloti va ma'naviy pokligi haqida o'ylashga undovchi ramzga aylantirgan. Mumtoz ijodkorlar Jamshid timsolida dunyo boyligi, davlat, taxt va shon-shuhratning baribir bevafo, inson uchun esa poklik va tavozu' eng oliy fazilat ekanini ko'rsatishga intilganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abulqosim Firdavsiy (2011). Shohnoma. Forsiydan Sh.Shomuhamedov, J.Jabborov, Nazarmat, H.G'ulom tarjimasi. - Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi. 736 b.
2. Sirojiddinov SH., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik/darslik. -Toshkent: "Tamaddun", 2019. – 520 b.
3. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Mezon ul-avzon. Tarixi anbiyo va hukamo. Tarixi muluki Ajam. Ar'bain. Siroj ul-muslimin. Munojot. Risolayi tiyr andoxtan. MAT. 20 jildlik. – T.: Fan, 2000. T. 16. -336 b.
4. https://tsuull.uz/sites/default/files/oltin_bitiklar_oak.pdf